

## BIOLOGIYA DARSLARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRUVCHI INTERAKTIV METODLAR

**Ergasheva Farog‘at Sheraliyevna**

Guliston davlat universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti PhD, dotsent

**Ahmadova Diyora Rustam qizi**

Guliston davlat universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti Biologiya turlar bo‘yicha yo‘nalishi 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7393927>

**Annotatsiya.** *Biologiya darslarida samaradorlikni oshiruvchi interaktiv metodlar hamda o‘quvchi-talabalarni darsga qiziqtirish, qiyin ma’lumotlarni oson o‘zlashtirish haqida yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *interaktiv metod, maktub, samaradorlik, “buterbrod”, diqqatni jamlash, fikr, mulohaza, nutq, “bog‘la”, bilim, ko‘nikma, tajriba.*

## ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА УРОКАХ БИОЛОГИИ

**Аннотация.** *Освещены интерактивные методы, повышающие эффективность на уроках биологии, заинтересовывающие учащихся на уроке, легкое усвоение сложной информации.*

**Ключевые слова:** *интерактивный метод, письмо, оперативность, «бутерброд», концентрация, мысль, рефлексия, речь, «соединение», знание, умение, опыт.*

## INTERACTIVE METHODS INCREASING EFFICIENCY IN BIOLOGY LESSONS

**Abstract.** *Interactive methods that increase efficiency in biology classes, interest students in the lesson, and easy assimilation of difficult information are covered.*

**Keywords:** *interactive method, letter, efficiency, "sandwich", concentration, thought, reflection, speech, "connect", knowledge, skill, experience.*

## "Ta'lim va ma'rifat – tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l "

**Sh.Mirziyoyev**

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

«Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021- yillarga mo'ljallangan —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish hamda ular asosida pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi o'rta maktab o'qituvchilari va Oliy ta'lim talabalari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Shu bilan birga, 2017-2018 - o'quv yilidan maktablarda 11 yillik o'rta ta'limning joriy etilishi ham, o'z navbatida, o'qituvchilarning malaka oshirishga bo'lgan yangi ehtiyojlarini keltirib chiqardi. Xususan, Biologiya darslarida samaradorlikni oshirish, o'quvchi- talabalarni darsga qiziqtirish hamda qiyin ma'lumotlarni osson tarzda yetkazib berish uchun yangi interaktiv metodlar ishlab chiqarishga to'g'ri keldi. Biologiya fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qitish metodlarini ishlab chiqib, biologiya fanini o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llay olish, zamonaviy talablar asosida dars ishlanmasini ishlab chiqish, biologiya o'qituvchisi zamonaviy talablar darajasida darslarni tashkil qilish va o'tkazish kompetentsiyalariga ega bo'lishi lozim.

Biologiya darslarida samaradorlikni oshiruvchi interaktiv metodlar – o'quvchi-talabani darsga qiziqishini oshirish va ushbu fanga bo'lgan qiziqish hamda bilim, ko'nikmalarni osson usulda o'rganib, oshirib borishda yordam beradi.

### **Interaktiv metodlar:**

1. "Maktub" metodi
2. "Buterbrod" metodi
3. "Bog'la" metodi

**1. "Maktub" metodi** – ushbu metodni umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari uchun ham hatto malaka oshirish institutida qo'llasa bo'ladi. Ushbu metod o'quvchi, talaba va har qanday biologiya fanini o'rganuvchilarni darsga nazariy bilimlarni berish jarayonida, toliqishi, zerikarli dars bo'lishi yoki nazariy bilimlarni barcha birdek o'zlashtira olmaydigan hollarda juda qo'l keladigan va o'z samarasini bera oladigan metod hisoblanadi. Aynan mana shu metod yordamida o'qituvchi tamonidan o'quvchilarni biologiya darsiga qiziqishi va nazariy bilimlarni oshirishi, nazorat qiladi va bunda o'quvchi o'zlari mustaqil o'rgangan holatda boshqalarga ham o'rgata olish qobiliyati, qolaversa dasrdagi muhim muammoli, dolzarb bo'lgan mavzularni o'zlashtirganliklarini aniqlashda qaratilgan muhim metod hisoblanadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun bir nechta xat jildlar hamda bugungi darsingizda o'tiladigan nazariy ma'lumotlarni tarqatmalar holatida o'quvchilarga beriladi. Ushbu metodni nazariy darslarida qo'llash juda samara beradi. Bunda o'quvchilarda interaktiv jarayonni tashkil qilishda darslarni qiziqtirgan holatda savol-javob orqali bilim darajasi ham baholanib boriladi.

Nafaqat ma'ruzada balki barcha darslarda, eng qiyin darslarda ham qo'l keladi ushbu "Maktub" metodi. Eng birinchi biz tayyorgarlik ko'rishdan boshlaymiz. Yuqorida aytilganidek nazariy ma'lumot bor, o'quvchilarga yetkazib berish kerak va uch-to'rt qatorlik ma'lumot yoziladi. Quyi va yuqori sinflarda ma'lumotlarni berish ma'lum hajmga ega bo'ladi. Kichik sinflarimizda bitta qog'ozda 2 qatordan 4 qatorgacha ma'lumot yoziladigan bo'lsa, yuqori sinflarda esa 10-12 qatordan iborat bo'ladi. Nazariy ma'lumotlarni mana shu tartib bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu ma'lumot kompyuterdan chiqarilgandan so'ng 3 buklam yoki 3 qismga bo'lamiz va xat jildlarga solamiz. Mavzu bo'yicha ma'lumot ko'pligiga qarab konvertlar soni aniqlanadi, ko'p bo'lishi ahamiyatga ega emas. Hamda konvertlar raqamlanadi. Dars mavzusini va dars rejasini tanishtirish mobaynida, sekin o'quvchiga taratilib chiqiladi. Bu xat jildlarni asosan nutq qilishda uyaladigan, nuqsoni bor yoki bo'lmaganda auditoriyada o'zini hayajonini boshqara olmaydigan, nutqini rivojlantirishga qaratilgan o'quvchilar, ancha sust bo'lgan, jimlik

bilan dars jarayonini o'tkazadigan, hech kimga e'tibor bermaydigan o'quvchilarga tarqatiladi. Lekin shu orada darsga qiziquvchan va kirishib ketadigan o'quvchilarga ham tarqatilib ketiladi. Ushbu xat jildlarni tarqatgandan so'ng, tabiiyki ular ochishadi va ichidagi ma'lumotni o'qishadi. Dars o'tish mobaynida o'qituvchi ana shu xat jildlarni ichidagi ma'lumotlarni tushuntirib, aytib o'tadi. Mavzu o'ratasiga kelganda ya'ni nazariy ma'lumotlarni bir qismi tushuntirilganda, birinchi xat jildni olgan o'quvchini o'rnidan turg'izib, ma'lumotingizni o'qib barchaga o'zingiz tushungandek, o'zingiz hohlagandek qilib gapirib berishi talab qilinadi. Huddi shu jarayon yana davom etadi. Har bir o'quvchi tushuntirgandan so'ng rag'batlanadi. Yana ma'ruza davom etaveradi va qaysi nuqtaga kelgan bo'lsa o'qituvchi shu o'rinda bitta o'quvchini o'rnidan turg'izib, ma'lumot tushuntirib berilishi so'raladi. Mana shu tartibda nafaqat o'qituvchi balki o'quvchi o'zining tengdoshiga mavzuni tushuntirib berishga va mavzuni to'liq o'zlashtirilishiga sazovor bo'ladi.

Bu metodda eng muhimi o'quvchilar sinfxonada gapira olishi ular yangi mavzuni "Men ham o'ta olar ekanman" degan o'ziga ishonchni orttiradi. Biologiya darsiga bo'lgan qiziqish ortadi va ma'lumot takrorlanish oqibati mustahkamlanadi. Olqish yoki "barakalla" degan so'zlar bilan rag'batlash kerak bo'ladi albatta. Ko'nikmani rivojlantirishga qaratilgan usul orqali o'quvchini qiziqtirish mumkin bo'ladi. Bu metod orqali biz nazariy ma'lumotni nafaqat o'quvchini tilida qolaversa o'ziga bo'lgan ishonch va nutqni oshirishga ko'nikma hosil bo'ladi.



**2. "Buterburod" metodi-** o'quvchini o'ziga jalb qila oladigan va bir zumda darsga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Ularda savollar tug'ula boshlaydi. Buterbrodni qismlari bo'ladi, ya'ni ikki chetida noni va o'rtasida masalliqalari bo'ladi. O'quvchilarga tushuntirib o'tiladi. Hamda kun mavzusini mana shu buterburod misolida mustahkamlash aytib o'tiladi. Demak, buterbrodning tagidagi non qismi- bugungi darsda o'quvchi uchun mavzuning mana shu qismi takrorlash bo'lganini bildiradi. Hattoki o'quvchini qiziqqanidan o'zlari daftarlariga chizib ham olishadi. O'rtadagi bo'sh qismida esa, ya'ni buterbrodning masalliqalari joylashadigan qismida bugungi darsda mana bu ma'lumotlar bollar uchun yangilik bo'lganini keltirishdi. Hamda buterbrodning

eng yuqoridagi qismi, noni – bu bollar o‘zi uchun mustahkamlab olgan ma’lumotlarni yoritadi. Ushbu metoddan foydalanish uchun ikki yoki uch daqiqa vaqt ketadi. Ya’ni kun mavzusi o‘tilgandan so‘ng dars yakunida bollarga mavzuni yaxshi o‘zlashtirishi va mustahkamlab olishi uchun qo‘l keladi. Ushbu vazifani o‘quvchilarga bergandan so‘ng ular daftarlariga yozib olishlari uchun bir yarim yoki bo‘maganda uch daqiqa vaqt ketadi. So‘ng ketma-ket o‘quvchilar bugungi mavzuda qanday ma’lumot takrorlandi, yangilik bo‘ldi va mustahkamlanganligini o‘qib berishadi.

Ushbu metoddan hattoki darsni boshida ham foydalansa bo‘ladi. Bu metod orqali o‘quvchilarga bugungi darsni qay darajada o‘zlashtirishdi, yangi ma’lumotlarni o‘zlariga olishdi-yu va tahlil qila olish ko‘nikmasi shakllanganini bilib olamiz. Hattoki o‘quvchilar tengdoshlarini ma’lumotlarini eshitganda ham yanada ko‘proq mustahkamlanadi va qaysi ma’lumot yodidan ko‘tarilgani-yu va yodga olganini ko‘rish mumkin. O‘qituvchi uchun bugungi darsda o‘quvchilarni qay darajada o‘zlashtirganini bilib olishi, va qanday ma’lumotlarni ko‘proq egallaganini bilib oladi va eng asosiysi o‘zlashtirish darajasini oshiradi, biologiya darsiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.



3. **“Bog‘la” metodi** – ushbu metoddan uyga vazifani so‘rayotganda yoki dars o‘tib bo‘lgandan so‘ng mavzuni mustahkamlash uchun qo‘llaniladigan osson va kam vaqt sarf bo‘ladigan metod hisoblanadi. O‘quvchilarni ijodkorligini va biologiya fani bo‘yicha fikrlash doirasini orttiradi. Metodni qo‘llash, ya’ni kun mavzusiga oid bo‘lgan A4 formatdagi rasm, portret yoki plakatga ham bitta yoki ikkita rasm chizilishi kerak bo‘ladi. Hamda ushbu rasm doskaga osiladi. O‘quvchilardan ushbu rasmni bugungi o‘tgan mavzumizga bog‘lab ma’lumot aytishlari talab qilinadi. Rasm o‘rniga lavha, predmet va hakoza qo‘llash ham mumkin. Ushbu predmetlarni bugungi kun mavzusi bilan bo‘g‘lash talab etiladi. Bu metod orqali o‘quvchini fikrlashi ortadi, mavzu ajoyib tarzda esda qoladi, mavzuni yanayam kengroq tahlil qila olish ko‘nikmasini beradi. Agar mavzuni yaxshi tushuna olmagan o‘quvchi bo‘lsa, tengdoshlari bog‘lab aytgan ma’lumotlaridan, ulardan chiqayotgan fikrlari orqali ham mavzuni yaxshi anglab olishi hamda kun mavzusini yanayam chuqurroq o‘rganib olish imkoniga ega bo‘ladi. Ushbu metod yordamida biologiyaga oid predmetlar, rasmlar foydalaniladi. Bu esa bolalar nafaqat kun

mavzusi balki, biologiyaga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlarni yodga oladi, qiziqish ortadi va bilimlar chuqurroq egallanadi.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qituvchi o'z bilmiga ega bo'lishi o'quvchini fanga va darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ta'lim sifat samaradorligini amalda ko'rsatadi. Yuqoridagi metodlardan aniq maqsadga erishish ko'zda tutuladi va unga erishish uchun faoliyatni amalga oshirishda o'quvchilar jalb qilinadi. Yosh avlodni bilimli, malakali va biologiya faniga bo'lgan qiziqishi ortishi, yurtimiz taraqqiyoti va kelajak avlodni yangi bilimlarni kashf etishiga turtki bo'ladi. O'quvchilarda erkin fikrlash doirasi va bilim darajasi ortishi ko'nikmasi hosil qilinadi.

## REFERENCES

1. Avliyakov N.X. Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. – T: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2007.
2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami Met.qo'll. —O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.– T:TDIU, 2013.
3. J.O. Tolipova, A.T. G'ofurov “ Biologiya o'qitish metodikasi” Toshkent-2004.
4. J.O.Tolipova, A.T. G'ofurov Ta'lim jarayonidagi noan'anaviy shakllar ( metodik tavsiyanoma) Toshkent-1997.